



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 25-may, payshanba,
62 (23.783)-son

**KUN
HIKMATI**

O'zingiz
bilmagan narsani
"noto'g'ri", deb
talqin qilishdan
tiyiling

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING BITIRUVCHI YOSHLARIGA

Qadri farzandlarim!

Avvalo, mana shu quvonchli ayyomda yetuklik shahodatnomasini qo'lga olib, mustaqil hayotga qadam qo'yayotganingiz bilan barchangizni chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Sizlar ozriqib kutgan 25-may sanasida mam-lakatimizdagi 10 mingdan ziyod maktablarda "so'nggi qo'ng'iroq"lar yangrab, qariyb 392 ming nafar yoshlari-miz qadrdon maktablari, mehribon ustozlari bilan xayrlashmoqda. Ayniqsa, 12 mingdan ortiq bitiruvchilarimiz o'qishni oltin, 2 mingdan ziyodi kumush medal bilan yakunlayotgani bayram shukuhini yanada oshirmoqda.

Albatta, ularning barchasi nafaqat siz, aziz farzandlarimiz, balki biz — ota-onalar, ustoz-murabbiylar uchun ham g'oyat quvonchli va hayajonli voqealardir.

Sizlarni zamonaviy ta'lim olib, kasb-hunar o'rgatib, jamiyatimizda munosib o'rin egallashingiz uchun yangilangan Konstitutsiyamizda belgilangan beqiyos imkoniyatlar kutmoqda.

Hech shubhasiz, o'z bilim va iste'dodini Vatanimizga munosib farzand bo'lishdek maqsadlarga sarflashga bel bog'lagan siz kabi yoshlar — yangi O'zbekistonning oltin fondi, bebaho xazinasi.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotida milliy yuksalish davri boshlanmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor berayotganimiz sizlarga yaxshi ma'lum. Xususan, Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili deb nom olgan 2023-yilda maxsus davlat dasturini qabul qilib, soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish, o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi o'rni va obro'-e'tiborini oshirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdamiz.

Hozirgi vaqtda yurtimizda 10 mingdan ziyod davlat umumta'lim maktablari, Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari bilan birga ko'plab nodavlat, davlat-xususiy sheriklik shaklidagi maktablar faoliyat yuritmoqda.

Birgina o'tgan yili 3,2 trillion so'm mablag' hisobidan 807 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bu yil esa o'rta ta'lim maskanlariga 40 ming dona zamonaviy kompyuterlar, 442 ta komplekt robototexnika jihozlari va boshqa zarur ashyolar yetkazib berildi.

"Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar va o'smirlar sport maktablarida keng ko'lami ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirilmogda, yoshlarimiz o'rtasida kitobxonlikni kuchaytirish, ularni adabiyot, san'at va sport to'garaklariga faol jalb etish bo'yicha izchil ish olib borilmoqda.

Ana shunday ishlarimizning samarasi sifatida yurtimiz o'quvchilari joriy yilda mintaqaviy va xalqaro fan olimpiadalarida 2 ta oltin, 15 ta kumush, 27 ta bronza medallarni qo'lga kiritgani, 6 nafar iste'dodli qizimiz Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgani barchamizni xursand qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarni maktab davridayoq kasbga ega bo'lishlari uchun 11-sinfni hayotga

yo'llanma beruvchi sinf deb belgilab, yoshlarga kamida ikkita chet tili hamda tadbirkorlarni jalb qilgan holda bitta zamonaviy kasb o'rgatish tizimi joriy qilinmoqda.

Hurmatli bitiruvchilar!

Keyingi paytda O'zbekiston unib-o'sib kelayotgan sizdek azmu shijoatli yoshlarimiz uchun ulkan imkoniyatlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Yurtimizdagi 210 ta oliygoh, 330 ta kasb-hunar maktabi, qariyb 400 ga yaqin kollej va texnikumlar sizlarga o'zingiz tanlagan sohalar bo'yicha yetuk kadr va malakali mutaxassis bo'lish uchun imkoniyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarning ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qib, oliy ma'lumot olishini ta'minlash maqsadida 154 ta oliygohda sirtqi, 15 ta oliygohda esa masofaviy ta'lim shakli faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, davr talabidan kelib chiqib, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'rgatadigan monomarkazlar, Ay-Ti va texnoparklar bunyod etilishi ularning o'z bizneslari bilan shug'ullanishiga xizmat qilmoqda.

Sizlarning jamiyatda munosib o'ringizni egallashingiz uchun joylardagi hokimliklar, sektor rahbarlari, mahalla jamoatchiligi ham yaqin ko'makchi va maslahatchi bo'ladi. Bunday ezgu maqsad yo'lida ularning eshiklari doimo sizlar uchun ochiqdir.

Ishonchim komilki, sizlar yaratilgan ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda, kelgusida yurtimizdagi zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, katta-katta firma va kompaniyalar, davlat va nodavlat tashkilotlarida mehnat qilib, o'z bilim va malakangiz bilan mamlakatimiz ravnagiga munosib hissa qo'shasiz.

Bugun maktabni tugatib chiqayotgan yigit-qizlari-mizning har biri el-yurtimizning mehri va e'tiborida bo'lishini yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman.

Siz, aziz farzandlarimizni kelajakda yanada ulkan va mas'uliyatli marralar kutmoqda. Har biringiz hayotda munosib o'ringizni topishingiz uchun biz bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to'liq ishga solamiz.

Men siz, aziz farzandlarimdan bir narsani so'rayman: tinimsiz o'qib, izlanib, zamonaviy bilimlarni egallashdan aslo to'xtamang! Doimo vaqtning qadriga yetib, muntazam bilim va tajribangizni oshirib borsangiz, qat'iy belgilab olgan reja va maqsadlaringiz sari dadil harakat qilsangiz, albatta kelgusida katta muvaffaqiyatlarga erishasiz.

Sizlarning doimo marrani baland olib, yagona kuch bo'lib harakat qilishingizga ishonaman. Sizlar bunga albatta qodirsiz.

Ana shunday sharaflari va mas'uliyatli yo'lida barchangizga ulkan yutuq va muvaffaqiyatlar, shaxsiy hayotingizda baxt va omad tilayman.

Sizlarni maktab ta'limini muvaffaqiyatli tamomlaganingiz bilan yana bir bor samimiy tabriklayman.

Mustaqil hayotdagi qadamlaringiz qutlug' va barakali bo'lsin, aziz o'g'il-qizlarim!

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



KAMCHILIKLAR JOYIDA O'RGANILDI

Kecha viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Samarqand shahri "Vatanparvar" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarining holati, sug'orish tizimidagi kamchiliklarni o'rganish maqsadida ushbu mahallada bo'ldi.

Hokim joriy yilning 13-may kuni "Vatanparvar" bog'ida o'tkazilgan sayyor qabulida ham mazkur masalalar yuzasidan murojaatlar bo'lgani, mahalla fuqarolari shahar obodonlashtirish boshqarmasi, uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyatidan norozi ekanligini ta'kidladi.

Hududdagi mavjud muammolarni hal etish bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Ahmadjon MELIBOYEV,
"Jahon adabiyoti"
jurnali bosh muharriri:

- Dunyoning yuksak darajada rivojlangan mamlakatlari ham tashqi siyosatda eng avvalo, shaxsiy manfaatni ko'zlaydi. Bu manfaatlar muhim strategik chorralarda o'zaro to'qnash kelib qolar ekan, yanada hushyor va ogoh bo'lishga to'g'ri keladi. Negaki, mafkuraviy tazyiq ko'rinmas bir ofat yanglig' xalq, millat hayotiga asta-sekin kirib keladi, yoshlar ong-shuurida chuqur ildiz otadi.

Sammitdan so'ng

European Bank
for Reconstruction and Development

YTTB va O'ZBEKISTON:

HAMKORLIKNING ASOSIY YO'NALISHLARI

O'zbekistonning Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligi 1992-yildan boshlangan. Aynan o'sha yilning boshida O'zbekiston YTTBga a'zo bo'ldi va shu yili Toshkent shahrida uning vakolatxonasi ochildi. Bank 1993-yildan O'zbekistonda loyihalarini amalga oshirishga kirishdi. 1994-yil 10-yanvarda YTTBning direktorlar kengashi O'zbekiston Respublikasiga loyihalarni moliyalash masalalari bo'yicha salbiy garov shartlarini bekor qildi. Shu davrdan boshlab bank infratuzilmani rivojlantirish, energetika majmui, turizmni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, bozor infratuzilmasini shakllantirish, tabiiy resurslarni o'zlashtirish, paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarini taraqqiy ettirish kabi yetti yo'nalishda faoliyat yuritadigan bo'ldi.

Bundan tashqari, YTTB aniq manzilli ishlar bilan ham shug'ullanishni boshladi. Xususan, umumiy qiymati 81,5 million ekyuga teng bo'lgan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini jihozlash, energetikada ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va Sirdaryo IESning xalqaro andazalarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan, umumiy qiymati 25,2 million ekyuga teng bo'lgan loyihalarini moliyalashtirdi. Yana bir muhim yo'nalish Toshkent xalqaro aeroportini ta'mirlash, shuningdek, xavfsizlikni oshirish uchun maxsus jihozlar sotib olish bo'yicha zarur ishlar amalga oshirildi. Bu tadbirlar uchun umumiy qiymati 43,5 million ekyuga bo'lgan miqdordagi kreditlar ajratildi.

YTTB bilan munosabatlar keyingi yillarda yangi bosqichga chiqdi. Prezidentimizning 2018-yil 6-avgustda "Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. So'ngra 2022-yil 7-dekabrda "Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida "Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 118 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" aniq manzilga mo'ljallangan qaror ham qabul qilindi.

Hozirda O'zbekistonda ham YTTB ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalarni quyidagi yo'nalishlarda tasniflash mumkin.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Samarqand triatlon bo'yicha nufuzli musobaqalarga mezbon bo'ladi



Joriy yilning 9-, 10- va 11-iyun kunlari Samarqand shahrida triatlon bo'yicha O'zbekiston chempionati, Osiyo kubogi va paratriatlon bo'yicha Osiyo chempionati bahslari o'tkaziladi.

O'zbekiston triatlon federatsiyasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi va paralimpiya qo'mitasi hamda Samarqand viloyat hokimligi hamkorligida tashkil etilayotgan musobaqaga ayni paytda qizg'in tayyor-

garlik ko'rilmogda.

Musobaqa tashkiliy qo'mitasi a'zolari ishtirokida asosiy bellashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan "Ipak yo'li" xalqaro turizm markazida navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tdi.

Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov, O'zbekiston triatlon federatsiyasi bosh kotibi Yelena Kun, federatsiya ijrochi direktori Ruslan Kuliyeov musobaqalarni o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni mas'ullar ishtirokida muhokama qildi. Shu paytgacha amalga oshirilgan ishlarga baho berilib, mavjud muammolarni o'z

vaqtda hal etish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar vakillariga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Ta'kidlash joizki, paratriatlon bo'yicha Osiyo chempionati mamlakatimizda ilk marta tashkil etilayotgan musobaqa hisoblanib, unda dunyoning turli mamlakatlardan 80 nafar imkoniyati cheklangan sportchi qatnashishi kutilmoqda. Ular 750 metr masofaga suzish, 20 kilometrlik velopoyga va 5 kilometr yugurish bahslarida kuch sinashadi.

Triatlon bo'yicha Osiyo kubogi bahslarida esa dunyoning eng

yaxshi 50 nafar ayol va 50 nafar erkak sportchilari ishtirok etishi rejalashtirilgan. Unda elita toifasidagi sportchilar standart/olimpiya masofalarida (1500 metr masofaga suzish, 40 kilometr velosiped poygasi, 10 kilometr yugurish) o'zaro bahs olib boradi. Musobaqa doirasida Markaziy Osiyo sportchilarini (SATA - Central Asia triatlon Association) alohida hisobda taqdirlash o'tkaziladi.

Triatlon bo'yicha O'zbekiston chempionati ham qiziqarli bahslarga boy bo'lishi kutilmoqda. Unda Elita, U23 va U15 toifalari o'rtasida standart va super-sprint masofasida triatlon bo'yicha milliy va o'smirlar terma jamoasiga tanlov o'tkaziladi.

Shuningdek, 300 nafar havaskor (triatlonchi bo'lmagan) shaxsiy va jamoaviy testlarda qatnashadi. Ushbu musobaqalar ikki masofada, ya'ni olimpiya (1500 metr masofaga suzish, 40 kilometr velosiped poygasi, 10 kilometr yugurish) va super-sprint (350 metr masofaga suzish, 13 kilometr velopoyga, 3 kilometr yugurish) bo'yicha tashkil etiladi.

Xalqaro musobaqa o'tkaziladigan 9-, 10-, 11-iyun kunlari Samarqand shahriining ayrim ko'chalarida transport vositalarining harakati vaqtincha cheklanadi.

A.ISROILOV.



YTTB va O'ZBEKISTON: HAMKORLIKNING ASOSIY YO'NALISHLARI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Birinci yo'nalish, YTTBning O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik qilish strategiyasini ishlab chiqish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish uchun normativ-huquqiy bazani yaratishga qaratilgan. Bunda davlat mulki va korxonalarini xususiy lashtirish hamda monopoliyadan chiqarish, tadbirkorlikni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish va moliya sektorlariga investitsiyalarni jalb etish, kapital bozorini shakllantirish kabi masalalarni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatish va ularning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga tezroq qo'shilishiga ko'maklashish masalasi asosiy ustuvorlikni tashkil qiladi.

Ikkinchi yo'nalish, iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish bo'yicha hamkorlik qilib kelinmoqda. Bunda energetika sektorini isloh qilish uchun sohani rivojlantirishga qaratilgan kompleks dastur ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, korporativ boshqaruvni xususiy lashtirish va takomillashtirish sohasida hamkorlik qilish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumi tuzilgan. Muhim masalalardan yana biri banklararo pul bozori hamda milliy valyutadagi mahalliy kapital bozorini rivojlantirish sohasida hamkorlik qilish nazarda tutilgan.

Uchinchi yo'nalish infratuzilma investitsiya loyihalarini amalga oshirish sohasida hamkorlik qilishga qaratilgan. Xususan, "Toshkent shahrida issiqlik ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish" loyihasi (umumiy qiymati 100 million dollar, 2019-yilda 21 million dollardan kam bo'lmagan holda o'zlashtirish) ko'zda tutilgan.

"Namangan shahrida suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini tiklash" loyihasini (umumiy summasi 60 million dollar) 2019-yilda 10 million dollardan kam bo'lmagan holda o'zlashtirish

belgilangan edi. Loyiha tizimli ravishda 2020-2022-yillarda ham amalga oshirildi. Infratuzilmaga mo'ljallangan dasturlardan yana biri "Pitnak shahrida suv tozalash inshootlarini tiklash va Xorazm viloyatining 6 ta tumanida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash" loyihasi bo'ldi. Ushbu tadbirga mo'ljallangan mablag'ning umumiy summasi 60 million dollarni va 2019-yildan boshlab 10 million dollardan kam bo'lmagan holda o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Bu loyiha ham 2020-2022-yillarda tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Toshkent shahrida suv ta'minoti tizimini tiklash, Talimarjon IESni 900 MWT quvvatga ega qo'shimcha bug'gaz qurilmasini qurish bilan kengaytirish loyihalari ham YTTB bilan hamkorlikning amaliy samarasi hisoblanadi.

"Obod qishloq" loyihasini qo'llab-quvvatlash uchun bank tomonidan 300 million dollar moliyaviy ko'mak ajratildi va 2019-yildan boshlab, 45 million dollardan kam bo'lmagan holda o'zlashtirish belgilangan.

Samarqand viloyatida energiya samarador ko'p qavatli arzon uylar qurilishi loyihasiga bank tomonidan 60 million dollar miqdorida sarmoya kiritilgan. Bu ham 2019-yildan buyon yiliga 20 million dollardan kam bo'lmagan miqdorda o'zlashtirildi. Shuningdek, gaz ta'minoti taqsimlash tizimini tiklash loyihasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish e'tibordagi masalalardan biridir. Hozirda davlat-xususiy sheriklik asosida "Toshkent-Samarqand" pullik avtomobil yo'lini qurish bo'yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

To'rtinchi yo'nalish moliya sektorida hamkorlik qilishga qaratilgan. Bunda asosiy e'tibor kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Qiymati 70 million dollarni tashkil etadigan loyihani amalga oshirish dasturiga ko'ra, 2018-yildan boshlab 35

million dollardan kam bo'lmagan holda o'zlashtirish belgilangandi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda savdoning moliyalashtirilishiga qaratilgan dastur doirasida "Hamkorbank" ATB uchun 30 million dollarlik kredit liniyasi ochish nazarda tutilgan. 2018-yilda 12,5 million, 2019-yildan 17,5 million dollardan kam bo'lmagan mablag' o'zlashtirishga kelishilgan.

Bundan tashqari, "Ipoteka bank"da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun qiymati 25 million dollarlik kredit liniyasini amalga oshirishga kelishilgan. Ushbu yo'nalishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Davrbank" XATBga 5 million dollar kredit liniyasi ajratish nazarda tutilgan.

Xuddi shunday "Ipkak yo'li" AITB uchun kredit liniyasi ochish va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, energiya samaradorlik bo'yicha loyihalarni va savdoni moliyalashtirish uchun 20 million dollar sarmoya kiritish loyihasi mavjud.

Beshinchi yo'nalish davlat korxonalarini isloh qilish, xususiy lashtirish sohasida hamkorlik va boshqaruvni korporativ usullarini joriy etishga qaratilgan. Mazkur yo'nalish ham bir qancha aniq tadbirlarni qamrab oladi. Jumladan, davlat korxonalarini xususiy lashtirish va isloh qilish masalalarida hamkorlik qilish to'g'risida kelishuv bor. Vakolatli davlat organlarida ishlash uchun xorijlik mutaxassislarini jalb etish ham ushbu tadbirlar tarkibiga kiritilgan.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizning YTTB bilan munosabatlari tizimli ravishda davom etmoqda.

Ikki tomonning o'zaro iliq munosabatlari, hamkorlikning izchil davom etayotganini 16-18-may kunlari tashkilot sammitining Samarqandda muvaffaqiyatli o'tkazilgani ham isbotlab turibdi.

Mamayunus PARDAYEV, SamISI professori, iqtisod fanlari doktori.



Davlatning fuqaro oldidagi burchi

odamlarga ko'rsatilgan yordamda ifodasini topadi

Samarqand shahrida "mahallabay" ishlash tizimini yanada takomillashtirish, aholining dolzarb muammolarini tezkor hal etish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Joriy yilning to'rt oyi davomida virtual va Xalq qabulxonalarini orqali hudud aholisidan 6299 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 992 taga yoki 16 foiz kamaygan.

Lekin murojaatlarning 958 tasi takroriy bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 258 taga ko'paygan. Shundan kelib chiqib "mahallabay" ishlash tizimini yanada takomillashtirish, aholining dolzarb muammolarini tezkor hal etish maqsadida Samarqand shahar Xalq qabulxonasi, sektor rahbarlari hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda joylarda sayyor, ommaviy qabullar o'tkazish reja grafiklari ishlab chiqildi.

O'tgan davr mobaynida tashkil qilingan 73 sayyor qabul jarayonida 1455 nafar fuqaro ishtirok etib, ularning 501 masaladagi murojaati ro'yxatga olingan. Murojaatlarning 188 tasi mas'ul tashkilotlar tomonidan ijobiy, 56 ta murojaat huquqiy ma'lumot berish orqali hal etilgan, 256 tasiga tegishli tartibda tushuntirish berilgan.

Jumladan, 41 nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi, 15 nafarining tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va uni rivojlantirishi uchun ko'maklashilib, 375 million so'm imtiyozli kredit olishi ta'minlandi.

Sayyor qabullar jarayonida 1200 nafar fuqaro tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'lig'ini tiklashi uchun 7 nafar fuqaroga yo'llanma, 14 nafariga bepul dori-darmon ajratilishida amaliy yordam ko'rsatildi.

Shuningdek, 7 nafar jismoniy imkoniyati cheklangan fuqaroga nogironlik aravachasi, 9 kishiga eshitish moslamasi, 15 nafariga qo'ltoqayoq olib berildi.

Bundan tashqari, 9 nafar kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilaning uy-joylari homiylar tomonidan ta'mirlandi.

"Temir daftar", "Ayollar daftar"da ro'yxatda turuvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj 173 ta oilaga tegishli yordamlar ko'rsatildi. Xususan, 66 ta fuqaroga o'zini o'zi band qilish maqsadida zarur asbob-uskuna, 15 ta oilaga quyosh panellari, 102 kishiga bir martalik moddiy yordam puli ajratildi.

Albatta, qayd qilinganlar shaxsiy muammolar hisoblanadi. Biroq hududda infratuzilma bilan bog'liq ko'pchilikni o'ylantirayotgan muammolar borki, ular ham tizimli ravishda hal etib kelinmoqda. Misol uchun, 7 ta umumta'lim maktabi, 6 ta maktabgacha ta'lim muassasi, 4 ta oilaviy poliklinikaning ta'mirlanishida amaliy yordamlar ko'rsatildi.

X.TURDIYEV, Samarqand shahridagi Xalq qabulxonasi yetakchi mutaxassisi.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatimiz aholisining jon boshiga umumiy daromadi 3,5 million so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan real o'sish sur'ati esa 105,4 foizni tashkil etdi.

Sud tizimida "yagona darcha" prinsipi

fuqarolarga yanada qulaylik yaratadi

Joriy yil 26-aprelda Prezidentimiz tomonidan "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun imzolandi.

Hujjat bilan jinoyat ishlarini ko'rishda kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan xususiy ajrim chiqarish asoslari belgilandi (tegishli mansabdor shaxslarning e'tiborini surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga qaratish zarur bo'lgan taqdirda).

Shuningdek, kassatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ko'rilayotgan fuqarolik ishini tugatish uchun asoslar ro'yxati tasdiqlandi.

Fuqarolik sudiga kiritilgan da'vo arizasi bo'yicha taalluqlik qoidalarini buzilgan taqdirda, mazkur da'vo arizasi sud tomonidan iqtisodiy yoki ma'muriy sudga yuboriladi. Bunda boshqa suddan da'voni qabul qilib olgan sudning sudyasi, da'vo bo'yicha kamchiliklar aniqlangan taqdirda 10 kun ichida da'vogarni kamchiliklarni bartaraf etish haqida xabardor qiladi.

Bundan buyon o'zaro bog'liq bo'lgan, ba'zilar fuqarolik ishlari bo'yicha sudga, ba'zilar esa ma'muriy sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talabni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Endilikda davlat ijrochisining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat ma'muriy sudga yoxud bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga beriladi (ilgari iqtisodiy sud bilan bog'liq bo'lgan ijro ishlari bo'yicha shikoyatlar iqtisodiy sudga ko'rib chiqilardi).

Bundan tashqari, iqtisodiy sudlar tomonidan chiqariladigan ijro hujjatlari ijroga uch yil ichida qaratilishi mumkin (ilgari 6 oy ichida).

Faxriddin QARSHIYEV, Ishtixon tumanlararo sudi raisi. Furqat ANAROV, Ishtixon tumanlararo sudi sudyasi.

Achchiq, ammo ochiq gap

SUVDAN MUAMMO YO'Q, MUAMMO SUVDA

Halokat tufayli okeanda qolib ketgan odamlar haqida eshitganmisiz? Ular to'rt tomoni suv bo'la turib, tashnalikdan azoblanadi. Ummonning sho'r suvidan ichsa ham, suvsiz o'tirsa ham o'ziga jabr.

Past Darg'om tumani Joul Qosim mahallasidagi muammo bilan tanishar ekanmiz, xayolan shu manzaraning ko'z oldimizga keltiridik. Suv-ku, bor, ammo uni iste'mol qilib bo'ladimi?

Tuman markazidan uncha uzoq bo'lmagan ushbu mahalladagi ichimlik suvi bilan bog'liq muammo haqida eshitib, vaziyatni o'rganishga qaror qildik. Ma'lum bo'ldiki, 3665 nafar fuqaro istiqomat qiladigan mahallada markazlashtirilgan ichimlik suvi tarmog'i yo'q. Undagi 692 ta xo'jalikning deyarli barchasi quduqlardan suv ichadi. Biroq yer sathidan atigi 6-7 metr chuqurlikdan olinadigan suvning iste'mol uchun yaroqliligi shubha ostida.

— Bundan 7 yilcha oldin quduqlarimizdagi suvni tekshirtirganman, - deydi mahalla raisi Said Omonov. — Nabiralarimning tez-tez qorni og'rib qolishi sababini izlagandim o'shanda. Tahlil suvimizdagi zararli moddalar me'yorida 2-3 barobar ko'pligini ko'rsat-



gan. Shundan buyon mahallani toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida ko'p joyga murojaat qildim. Natija bo'lmadi. To'g'ri, hozir ba'zi oilalar toza suvni sotib olyapti, lekin besh qo'l barobar emas. Quduq suvidan kundalik ehtiyojlarimizni qondirish uchun foydalanishga majburbiz.

Biz kirgan xonadonlarning deyarli barchasida quduq bor edi. Kimdir undan suvni "motor" orqali tortib olayotgan bo'lsa, boshqalar eski usulda, chelakdan foydalanyapti. Biz bilan suhbatda bo'lganlar quduq suvini avval tinitib, keyin qaynatib ichishlarini aytishdi.

— Esimni taniganimdan beri shu quduqdan foydalanamiz, - deydi mahalla ayollaridan biri R.Botirova. — Yaqin yillarda ichish uchun suvni arteziani bor xonadonlardan tashib kela boshladik. Yozda bu unchalik qiyin yumush emas, lekin qishda zahmati ortadi. Boshqa ilojimiz ham yo'q, suvsiz yashab bo'lmaydi, axir.

— Quduqlarimizdan loyqa suv chiqadi, - deydi yana bir fuqaro. — Mahalla markazidan pastroq tushsangiz, 4-5 metrdan ham suv chiqadigan joylar bor. U yerda-gilarning ahvoli biznikidan-da yomon. Mas'ullar bunga befarq. To'g'ri, mahallaning markaziy ko'chasini asfalt qilib berishdi. Lekin suv muhimroq-ku. Viloyatning ayrim joylarida butun boshli yangi shaharlar qurilayotgan bir vaqtda, ikki-uchta mahallani toza ichimlik suvi bilan ta'minlashning iloji yo'qmi?

Joulqosimliklarni qiyinayotgan bu muammo butunlay e'tiborsiz qoldirilgan, deya olmaymiz. Joriy yil hududda "O'zsuvtaminot" AJga qarashli "Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilish bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK buyurtmasi asosida suv inshooti qurilishi boshlangan. Biroq tez kunlarda ishga tushishi ta'kidlanayotgan (pudratchiga pul o'z vaqtida o'tkazilmaganligi sababli qurilishi bir nechta oyga kechikkan) inshoot mahallaning faqat 100 ta xonadonini toza ichimlik suvi bilan ta'minlar ekan. Bu juda kam, qolganlarning taqdiri nima bo'ladi? Mas'ullar bilan bog'lanib, ayni savolga javob olishga harakat qildik.

— Loyihada 120 ta xonadonga tarmoq tortish belgilangan, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Past Darg'om tumani filiali bosh muhandisi Zohid Kazakov.



— Lekin inshoot 180 ta xonadonni suv bilan ta'minlash quvvatiga ega. Boshqalar ham keyinchalik tarmoqqa ulanishlari mumkin.

Mas'ulning aytishicha, mahallada yana bir suv inshootini qurish bo'yicha loyiha tayyorlangan. Lekin unga hali mablag' ajratilmagan. Loyiha bilan tanishmoqchiligimizni aytganimizda, u qo'lida yo'qligini, tuman hokimligidan topishimiz mumkinligini aytdi. Tuman hokimligi "keyinroq" tashlab beradigan bo'ldi. Xullas, "arqon tortish" boshlanib ketdi.

Yana bir qiziq holatni aytib o'tmasak bo'lmaydi. Mahallaga biriktirilgan oilaviy shifokordan hududda qanaqa kasalliklar ko'p uchrayapti, quduq suvi odamlar salomatligiga qanday ta'sir qilayapti, degan savollarimizga tayinli javob ololmadik. Shu vaqtgacha ular ichib kelayotgan suvni "SES" orqali tekshirib, aholini rasmiy ogohlantirish ham hech kimning xayoliga kelmagan. Xo'p, shifokor e'tiborsizlik qilgan deylik, hududdagi muammolaning boshqa hech kimning xabari yo'qmi? Suv inshootini qurishda 100 ta emas, 180 ta xonadonga tarmoq tortilsa yoki inshootning quvvati yanada oshirilsa bo'lmasmidi? Nega mas'ullar bilan bog'lanib, ma'lumot so'rasak, hammasi birdek "Endi qilyapti, rejada bor", deydi? Bugungacha rejasiz ishlanganmi? Oqibat bilan emas, sabab bilan kurashishni qachon boshlaymiz? Xullas, savollar tobora ko'payib bormoqda.

Biz bu bilan kimnidir aybdor qilib, jazolatish fikridan yiroqmiz. Maqsadimiz e'tibordan chetda qolayotgan muammoni eslatib qo'yish, xolos. Mana, xabarni yetkazdik. Endi mas'ullardan harakat, hech bo'lmaganda, munosabat kutib qolamiz. Bu gal ham "Rejada bor", deyish bilan ish yopilmasa kifoya.

Asqar BAROTOV, "Zarafshon" muxbiri.

Xitoycha

“GAMBIT”



Dunyodagi voqealar kundan kunga shunchalik tez o'zgarib bormoqdaki, kecha aytilgan so'z bugunga to'g'ri kelmay qolyapti. Agar yodingizda bo'lsa, muqaddam chop etilgan maqolalarimizdan birida Xitoy Xalq Respublikasining xalqaro siyosat bobida betaraflik tuzumida qat'iy turganligi haqida to'xtalgan edik. Bugun endi yana shu mavzuga qaytishga to'g'ri kelyapti. Nega desangiz, rais Si Jinpin shaxs an o'zi prezident Zelenskaya qo'ng'iroq qilib, Xitoy tomoni Ukrainaning hududiy yaxlitligini hurmat qilishi va bu borada Ukraina bilan bir-dam ekanligini izhor qildi. Yaqinda BMTda Rossiyaning bosqinchi mamlakat deb tan olish haqidagi rezolyutsiyaga ham Xitoy vakili Ukrainani yoqlab ovoz berdi.

Umuman, keyingi vaqtda ushbu masala bo'yicha Moskva uchun xalqaro miqyosda katta muammolar paydo bo'lmoqda. Masalan, Rossiya tomoni Ukrainaga qarshi harbiy harakatlarni ko'pi bilan bir oy ichida yakunlashni rejalashtirgan edi. Bultur 18-mart kuni Kiyevda, 9-may kuni Moskvada tantanali g'alaba paradi o'tkazilishi mo'ljallangandi. Voqealarning keyingi oqimi bu rejalarning barchasini puchga chiqardi. Aksincha, ukrainaliklar rus armiyasiga qattiq qarshilik ko'rsatib, hatto ular bosib olgan ko'pgina shahar va qishloqlarni ozod qilishdi. Biroq bu harbiy harakatlar hali-beri tuga-maydiganga o'xshab boryapti.

“Urush 2023-yildan keyin ham uzoq davom etadi”, deb yozadi “Ruyters” axborot agentligi. Nashrning yozishicha, Rossyaning Donetsk oblastini egallashi dar-gumon. Chunki bu taktika Moskvaning harbiy rejalarni barbod qilishi mumkin bo'lgan kuch va o'q-dorilarni yo'qotishga olib keldi. Aynan shu holat uzoq davom etadigan urushni keltirib chiqardi. Shuningdek, xabar-da qayd etilishicha, Rossiya ham, Ukraina ham jangni uzoq muddat davom ettirishi mumkin. Bunda Rossiyaning ichki imkoniyatlari yetarli omil bo'lsa, Ukraina tomonida butun bir G'arb dunyosi turganligini e'tibor-dan soqit qilmaslik kerak.

Haqiqatan ham, mana bir yildirki, qonli janglarning poyoni ko'rinmayapti. Shu davr ichida kim nimaga erishdi, degan haqli savol paydo bo'ladi. Rossiya to-moni o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishdimi? Bizning fikrimizcha, mulatto teskarisi kelib chiqdi. Aytaylik, Ukrainani qurolsizlantirishga bo'lgan urinish uning zamonaviy harbiy texnika bilan qayta qurol-lanishiga sabab bo'ldi. Rus hukmronligini o'rnatish esa nafaqat Ukraina, balki dunyo miqyosida kuchli rusofobiyaning shakllanishiga sabab bo'ldi. NATO ni chegaralardan naribroqqa surishga intilish Finlandiya hisobiga yana bir necha yuz kilometrga yaqinlastirdi. Endi NATO raketalari Rossiya chegarasiga 20 soniya-da yetib keladigan bo'ldi. Xavfli sarhadlar yana 1300 kilometr ga uzaydi. Finlandiyaning NATOga qo'shili-

shi ittifoqning 74 yillik tarixida eng tez sodir etilgan jarayon bo'ldi. Yana buning ustiga Shvetsiya ham Shimoliy Atlantika harbiy tashkilotiga qo'shilgudek bo'lsa, bu Rossiya tomoni uchun juda yirik noxushlik bo'lishi aniq. Buning ma'nosi shuki, Boltiq dengizi NATO uchun ichki bir hududga aylanib qoladi. Oxir-gi voqealarning eng yomon oqibati: Rossiya G'arb tamadduni va iqtisodiyotidan uzilib qoldi. Bir vaqtlar sho'ro rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan bog'lan-gan iqtisodiy rishtalar tamomila uzib tashlandi. Natijada Moskva tashqi dunyodan uzilib, yakkalanib qoldi. G'arb mamlakatlari tomonidan joriy etilayotgan siyosiy-iqtisodiy cheklovlar oxir-oqibat yaxshilikka olib kelmasligi kundan kunga ayon bo'lib bormoqda.

Gap Finlandiya haqida ketar ekan, bir vaqtlar G'arb mamlakatlari Moskvaga Ukrainani “finland-lashtirish”ni taklif qilishgan edi. Buning ma'nosi: Rossiya Ukrainani Yevropa Ittifoqiga kirishiga qar-shilik qilmasligi va buning evaziga u betaraf mam-lakat shaklida Yevropa bilan Rossiya o'rtasida bufer davlatga aylanishi lozim edi. Ammo bunga Krem tish-tirnog'i bilan qarshi turdi, Kiyevning Ga'rb tomon qilgan har bir harakatiga qaqshatqich zarbalar ber-di. Buning eng yuqori cho'qqisi Qrim yarim orolining Ukrainadan tortib olinishi bo'ldi. Endigi oqibat shuki, Finlandiya “ukrainlashib”, betaraf davlat maqomini batamom yo'qotib, Moskva uchun dushman mam-lakatga aylandi. Bundan kim yutdi-yu, kim yutqaz-ganligini bilib olish qiyin emas.

“G'alabani otasi ko'p, mag'lubiyat – girt yetim”, degan ibratomuz naql bor. Shu ma'noda, xitoylik pragmatik siyosatdonlar ham o'z manfaatlarini taroziga qo'yib, oxiri oqilona yo'lni tanlashdi. Yaqinda BMTdagi siyosiy tadbirda Xitoy Rossiyaning bosqinchi davlat, deya baholab ovoz berdi. Bu borada unga Braziliya, Hindis-ton singari yirik davlatlar ham qo'shildi. Qizig'i shunda-ki, Qozog'iston va Armaniston kabi yaqin ittifoqchilar ham Rossiyaning bosqinchi mamlakat sifatida tan olishdi.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi viloyat kengashining navbatdan tashqari VIII konfe-rensiyasi bo'lib o'tdi.

Partiya s'ezdiga delegatlar saylandi



Partiya viloyat kengashi raisi Akbar Axtamov boshqargan konferensiyada joriy yilning 9-iyul kuni muddatidan ilgari bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentlik sayloviga tayyorgarlik ko'rish va unda partiyaning munosib ishtirokini ta'minlash masalasi muhokama qilindi. Saylovning ochiq, oshkora va kuchli raqobat muhitida o'tishi inobatga olingan holda, bu borada qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.



Yig'ilishda “Milliy tiklanish” demokra-tik partiyasining navbatdan tashqari s'ezdiga delegatlar saylandi.

Madina EGAMOVA.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

ABITURIYENTLAR
DIQQATIGA!



SAMARQAND XALQARO TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI HUJJATLAR QABULINI BOSHLAGI



Hujjatlarni www.siut.uz sayti orqali topshirishingiz mumkin. Siz o'рта ta'limni bitirganlik haqidagi hujjatlarni olguningizga qadar o'zingiz tahsil olayotgan muassasaning (maktab, kollej yoki litsey) bitiruvchisi ekanligingizni tasdiqlovchi ma'lumotnomani tizimga yuklashingiz mumkin.

MUHANDISLIK:
- “Geologiya va geomuhandislik”;
- “Konchilik ishi”;
- “Kimyo muhandisligi”;
- “Neft va gaz muhandisligi”;
- “Axborot texnologiyalari”.

TADBIRKORLIK:
- “Tadbirkorlik va menejment”;
- “Xalqaro logistika”.

XITOIY ENERGETIKA INSTITUTI:
- “Issiqlik energetikasi” (Xitoy oliy ta'lim dasturlari asosida).

KOREYA TEKNOLOGIYASI VA MADANIYATI KOLLEJI:
- “Yashil texnologiyalar” (qayta tiklanadigan energiya manbalari);
- “Dizayn”;
- “Raqqamli iqtisodiyot”.

TA'LIM INGLIZ TILIDA OLIB BORILADI

+99855-705-50-05, +99897-575-48-29

Telegram (http://t.me/siut_uz) Facebook (<https://facebook.com/siut.uz>)
Instagram (<https://instagram.com/siut.uz>) Sayt (<http://www.siut.uz/>)

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minkulovich notarial idorasida marhum Muxsinov Gayrat Vorisovichga (2022-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Hazratqulov Mahmud Mo'minkulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Valixodjayev Farzod Batirovich notarial idorasida marhum Jumaqulov Jasur Jamshid o'g'liga (2023-yil 19-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu

munosabat bilan merosxo'rlar Valixodjayev Farzod Batirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Boliyev Danaboy Mamarazaqovichga (2022-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Muxammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

“SAMARQAND VILOYAT AGROSERVIS MTP” MCHJ
TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

Samarqand shahrida joylashgan “SAMARQAND VILOYAT AGROSERVIS MTP” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sis-chilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 9-iyun kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.

USHBU HISOBOT YIG'ILISHIGA BARCHA TA'SISCHILAR VA QIZIQUVCHI TASHKILOTLAR RAHBARLARI TAKLIF ETILADI

Yig'ilishda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-102-son qarori ijrosini ta'minlash;
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi-ning 2023-yil 12-maydagi 01/09-5-17/336-sonli topshiriq xati muhokamasi;
3. Boshqa masalalar.

Manzil: Samarqand shahri R.Xoshimov ko'chasi, 26-uy.
“SAMARQAND VILOYAT AGROSERVIS MTP” MCHJ kuzatuv kengashi

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Az iz Azamatovich notarial idorasida marhum Narkuziyev Erkinga (2019-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashirova Dilofruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Xolbekov Nasilloga (2021-yil 19-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Ashirova Dilofruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abduraxmanov Elyor Jamshitovich notarial idorasida marhum Usarov Atamurot Jo'raqulovichga (2018-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Abduraxmanov Elyor Jamshitovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur tumani Mustaqillik maydoni.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Xolmirzayeva Adolat Xamrakulovnaga (2022-yil 18-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Mirzayeva Barno

Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Jomboy tumani Toshkent ko'chasi, tuman davlat xizmatlari markazi binosida.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Maxmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ibadullayeva Fatimaga (2020-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Davronov Maxmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Axmedjanov Muinga (1985-yil 15-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qorako'zov Abduraziz Muhitdinovich notarial idorasida marhum Xolmirzayev Mavlon Eshimovichga (2022-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlar Qorako'zov Abduraziz Muhitdinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Urgut tumani Pochvon mahallasi.



Bugunning gapi

Yomon odatlardan nega qutulolmaymiz?

Yurtimizda umra ziyoratiga borishni istovchilar uchun bugun imkoniyatlar bisyor. Kimdir davlat tomonidan, kimdir xususiy firma orqali ziyoratga o'tlanmoqda. Shahrimizda ham xususiy firmalar ko'paygani bunga tablabning yuqoriligini bildirmoqda. Biroq umra yoki haj ziyoratiga borishni istovchi yurt-doshlarimizning hammasi ham ziyoratning odoblari, undan keyingi amallarni bilmaydi. Shuning uchun xalqimiz orasida "haj oshi", degan udum avj olmoqda.

Bugun masjidlarda juma namozidan oldin aholiga umra ziyorati odoblari tushuntirilmoqda. Shuningdek, ziyoratchilarni kutib olish marosimi kundan kunga dabdabali bo'lib bo'rayotgani tanqid qilinib, haj oshi va to'yga kelganlarga ulashilayotgan sovg'a-salomlarga sarflanayotgan pullarni savobli amallarga yo'naltirish maqsadga muvofiqligi aytilmoqda. Ammo tushuntirish-targ'ibot ishlari olib borilayotgan bo'lsa-da, marosimlar ixcham o'tkazilmayapti.

Yaqinda bir tanishim aytib qoldi: "Akamning umradan qaytishiga bolalari 200 ta joynamoz, 200 ta tasbeh olishdi. Joynamozlarning har biri 35 ming so'mdan, jami 7 million so'm bo'libdi". Endi qolganini o'zingiz hisoblayvering, tasbehlardan bilan birga sovg'a uchun o'n million so'mdan ortiq pul sarflanyapti. Hali restoranda kamida 400 kishilik dasturxon tuzatildi. Xullas, bir oilaning o'g'lini uyantirsa bo'ladigan xarajat qilinyapti. Undan ko'ra, qo'li kalta xonadonga kelin olishga ko'maklashsa yoki kambag'al qo'shnisini umra ziyoratiga yuborsa, savob emasmi? Yoki maktabga 100, 200, 500, xullas, qurbi yetganicha kitob olib

bersa ham savob-ku! Aslida chin dildan yaxshi amal qilishni istaganlar uchun savobli ishlar juda ko'p. Yaqinda bir ayol umra ziyoratidan kelgach, mahallasidagi uch nafar kam ta'minlangan oila farzandlariga xatna to'y qilib beribdi. To'y bolalarning ota-onasi bundan juda xursand bo'libdi.

Ba'zida o'zimiz bilib tursak-da, foydasiz urf-odatlarimizdan voz kechilmaymiz. Aslida haj, umra ziyoratidan maqsad - Allohning rizoligini topish. Biz esa odamlar rizoligini topishni o'ylayapmiz - mehmonlarning hammasiga sovg'a berish kerak, dasturxonda kamchilik bo'lmasin, mahalla va qarindosh-urug'ni haj oshiga aytish kerak va hokazo.

Mahalla ko'chasi-ni asfalt qilish, eskirgan transformator va simyog'ochlarni almashtirish, eski bog'cha binosini ta'mirlash kabi muammolarni qurbi yetadigan kishi bajarsa ham savob. Atrofimizda shuncha savobli ishlar turganda negadir biz pulimizni dang'illama to'y qilishga sarflaymiz. Bu yomon odatlardan nega voz kechilmaymiz? Bunga sabab bilimsizligimiz emasmi? **Xurshida ERNAZAROVA.**

Tarixchilar maktabining munosib davomchisi

Milliy davlatchiligimiz va xalqimizning boy o'tmishi tarixini chuqur o'rganish, xolis yondashuv bilan moziy silsilalarini yoritish tadqiqotchilardan katta mas'uliyat, mashaqqatli mehnat talab qiladi. Bu borada ilm-fan beshigi bo'lib kelgan Samarqandda o'zbek tarixchilarining katta ilmiy maktabi shakllandi. Ushbu maktabga tamal toshini qo'ygan o'nlab ustoz-murabbiylar ishini bugungi iqtidorli, bilimdon tarixchilar muvaffaqiyatli davom ettirib kelmoqda. Ulardan biri tarix fanlari doktori, professor Ilhom Saidovdir.

I.Saidov 1953-yilda tavallud topdi. Taqdir uni o'quvchilik davridayoq bag'ririkeng insonlarga ro'baro' qildi. Ma'rufjon Ismoilov, Maqsud Salohiddinov, Maqsud Nasriddinov, Inoyat Qudratov va boshqa sinfdoshlari bilan Samarqand shahridagi 27-o'rta maktabda saboq oldi. Tamara Haqberdiyeva, Lyubov Artisheva, Yuriy Fomin singari zukko ustozlar ularning hayot yo'lini belgilab olishida katta yordam berishdi.

Samarqand davlat universitetidagi tahsil davomida esa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi M.Aminov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Mavlon Jo'raqulov, professorlar M.Abramov, Y.Alekserov, M.Egamberdiyev, dotsentlar O.Azimov,

K.Samiboyev va boshqa ustozlarning ko'magini doim his qilib o'qidi, izlandi.

Universitetni bitirgach, shu dargohda aspiranturada tahsilni davom ettirdi va 1978-yildan buyon I.Saidovning ilmiy-pedagogik faoliyati shu tabarruk dargoh bilan bog'liq holda kechmoqda. 1992-yildan boshlab Samarqand davlat universitetining birinchi prorektori, tarix fakulteti tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasini professori, 2000-2003-yillarda Samarqand davlat chet tillar instituti birinchi prorektori bo'lib ishladi. Ayni paytda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasini professori.

Professor I.Saidov talabalariga

dars berish bilan birga, ilmiy jamoatchilik ishlarini ham bajardi. Jumladan, tashkilotchi olim sifatida ko'p yillar UNESCOning Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti direktorining o'rinbosari bo'ldi.

Hozirgacha olimning 12 ta monografiya, 15 ta o'quv qo'llanmasi, 15 ta uslubiy qo'llanmalari, 300 dan ortiq ilmiy va ommabop maqolalari chop etilgan. I.Saidov Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlaridan tashqari, Blumington (AQSh), Tehron, Turkiston, Indianapolis, Moskva, Ashxobod, London va jahonning boshqa yirik shaharlarida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyalarda qatnashdi. U AQShning Indiana universiteti, Angliyaning Kembrij universiteti talabalariga O'zbekiston tarixidan ma'ruzalar o'qidi.

Bugun ham I.Saidov uch nafar fan nomzodi tayyorlab, besh nafar tadqiqotchining ilmiy izlanishlariga rahbarlik qilmoqda. Shuningdek, Samarqand davlat universiteti huzuridagi ixtisoslashgan ilmiy kengash seminari raisi va a'zosi sifatida ham jonbozlik ko'rsatyapti.

Ilhom Muhiddinovich namunali

Yonimizdagi odamlar



oila sohibi hamdir. Samarqand davlat tibbiyot instituti umumiy amaliyot shifokori kafedrasini assistenti lavozimida ishlagan umr yo'ldoshi Dilorom Abdullayeva (joylari jannatda bo'lsin) bilan olti farzandni yurtimizga munosib insonlar qilib tarbiyalashdi.

Ustoz va murabbiy, yetuk tarixchi olim Ilhom Saidovni qutlug' 70 yoshi bilan tabriklab, u kishiga sihat-salamatlik, ilmiy-pedagogik faoliyatiga baraka tilaymiz.

Shokir G'AFFOROV, tarix fanlari doktori, professor.

Muruvvat



Ishdan qaytishda avtobusga mindim. Har kungi ahvol: yo'lovchi ko'p, kimdir kekxa yoki ayollarga joy beryapti, kimdir sherigiga dardu holini dasturxon qilyapti, yana kimdir telefonda bor ovozi bilan gaplashyapti.

Konduktor bolaning fikru xayoli esa pul terishda. Maktab yoshidagi o'spirin katta-kichik - hammaga bir xil muroajaat qiladi: "qani, yo'lkirani bering!". Birov qo'lida tayyor turgan pulni uzatadi, birov cho'ntagi yoki sumkasini, qopchig'ini kovlab qoladi, yana birov pensiya daftarchasini ko'rsatadi. Konduktor bola nihoyat mendan ikki qator oldindagi kekxa ayol yoniga keldi va baland ovoz bilan so'radi: - Xola, yo'lkirani berasizmi? Onaxon noqulay ahvolda qoldi, past ovozda bolakayga dedi: - Bolam, uzr, pensiya guvohnomam uyd qolibdi, aksiga olib, cho'ntagimda pul ham olib chiqmabman. Har kuni shu avtobusda yuraman, bilasan-ku. Ertaga qo'shib to'layman, maylimi? - E, xola, nima deyapsiz, men ham bir xizmatchiman, terilgan pulni egasiga

topshirishim kerak! Qani, tez bo'ling yoki avtobusdan tushing! Onaxon ham, salonda o'tirganlar ham noqulay ahvolda qolishdi. Lekin hamma o'z xayoli bilan band, yo'lkira to'lamayotgan ayolga har xil qaraydi. Shunda yoshi ulug' kishi gap qotadi: - Hoy, uka, ovozingni buncha balandlatma, ko'rib turibsan-ku, onaxon to'g'risini aytyapti. Ma, mana, men beraman yo'lkirasini. O'zingning onang ham shunday holga tushishi mumkin-ku... Hamma jimib qoldi. Bobo konduktorga pul uzatdi. Ammo u hushyor tortdi, pulni olmadi. Onaxon esa, manziliga tushayotib, bobo ni duo qildi: - Katta rahmat sizga, topganingiz tillo bo'lsin, farzandlar huzurini ko'ring! **Narzitosh YUSUPOVA.**

Qobil bobo ko'zi ojizligi sabab televizorning faqat ovozi eshita oladi. Bugun ham sport kanalini eshitib o'tiribdi. Koreyada bo'lib o'tayotgan musobaqada nabirasi Muhammadjon ishtirok etyapti. Mana, hozir nabirasi qaysidir mamlakat vakili bilan kurash tushyapti. Qobil bobo sharhlovchining kurashni zo'r ishtiyok bilan sharhlayotganini eshitar, nabirasi qanday chaqqonlik va mahorat bilan raqibini mag'lub etayotganini ko'rishni chin dildan xohlardi.

Halol!

Shu onda bobo uzoq o'tmish, yoshlik yillarini, Urgut tog'lari etaklarida do'stlari bilan mol boqib, kurash tushib, o'zlaricha musobaqalar uyushtirganini esladi.

O'shanda ular 14-15 yoshlar atrofida edi. Adirning kurash uchun ajratilgan joyida musobaqa bo'lardi. Shunday musobaqalarning birida Qobil davraga chiqqan navbatdagi polvonlarga tikilib, yonidagi do'sti Umarni turtdi: - Umar, tasavvur qil, - dedi-da, shu topda xayoliga kelgan orzusini do'stiga gapira ketdi. - Mana shu o'tloq o'rni jahonning mashhur shaharlaridan birining sport maydoni, bizning milliy kurash eng mashhur sport turi, hammamiz birin-ketin chet ellik polvonlar bilan kurashyapmiz. Musobaqada biz g'alaba qozondik va hammamiz davra o'rtasiga sovrinni olish uchun chiqdik. Shunda birdan - O'zbekiston haqida qo'shiq yangrasa, zo'r-a? Bir o'ylab ko'r!?

- Iye, keyin yurtimiz haqida rus tilida kuylaymizmi? - dedi Umar ensa qotirib. - Nega endi rus tilida, o'z ona tilimizda kuylaymiz! - Ha mayli, Qobilboy, chet elga borsang, borib kel, sazung o'lmasin, - dedi unga do'sti, so'ng gapni hazilga burdi. - Lekin aytib qo'yay, qo'ylaringga men qarab turmayman. Orada kulgi va biroz sukunat cho'kdi.



- Eh Umar, bu o'yinni biz jahonga olib chiqmasak, dunyoning eng zo'r polvonlari bo'la olmasak, albatta, bizdan keyingilar qiladi bu ishni, - dedi u o'ziga o'zi gapirayotgandek...

Uzoq o'yga tolgan Qobil boboning xayolini ajnabiy hakamning o'zbek tilida "halol!" degan xitobidan so'ng sharhlovchining quvonchdan qiyqirig'i buzdi: g'alaba!

Qobil bobo qattiq hayajonga tushdi. Nabirasining g'alabasidan g'ururlandi. Hali ham sharhlovchining "Halol, biz yutdik, yashavor o'zbek o'g'loni", degan gaplari eshitilib turardi. Ko'p o'tmay g'oliblarni taqdirlash marosimi boshlandi. Qobil boboning qalbi hayajonga o'lib turgan payt zangori ekran orqali bolalikda o'sha orzu qilgan so'zlar yangrar edi:

Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot...

Qobil bobo ko'zlaridan tomchilayotgan yoshni artar ekan, shukrona kalimlarini takrorlar edi.

Dilfuza MELIQULOVA, SamDCHTI talabasi.

MUNG'LI KO'ZLAR

Turmush chorrahalarida

- Urey, dadam keldilar! Ko'chada dugonasi Dilshoda bilan o'ynayotgan Nigora darvoza yoniga kelib to'xtagan "Neksiya" tomon yugurdi. Mashinadan tushgan Sodiqjon egilib, qiyqirib kelayotgan qizchasini boshi uzra baland aylantirdi. - O'zimning asal qizim, shakar qizim, - u Nigorani yerga qo'yib, mashinadan qopchinni oldi. - Qani erka qizim topsinchi, nima olib keldim? - Shokolad, shokolad, - chapak chalib irg'ishladi Nigora. - Topding! - Sodiqjon shokoladni olib, unga uzatdi. Nigora shirinlikni ochib, og'ziga solib, boshini sarak-sarak qildi: - Oh, oh! - Dadaga nima deyish kerak? Nigora dadasini bo'nyidan quchib yuzidan o'pdi. - Rahmat, dadajon! Sodiqjonning ko'zi sal narida tamshanib

turgan Dilshodaga tushdi. Bir hovuch konfet olib unga ham uzatdi. - Ol, Dilshoda, bu senga! Dilshoda rad etib, boshini silkitdi. Uning mung'li ko'zlari yoshga to'lgandi. - Ol, ol, y... Dilshoda o'g'rilib uyiga kirib ketdi. - Negadir xafa bo'ldi, bor qizim, o'zing dugonangni konfet bilan mehmon qil! - Olmaydi, o'zi shunaqa, boshqalarni dadasi erkalasa, tumtayib oladi. Bolalar "sen yetimsan, otang tashlab ketgan", deb masxara qilishadi-da! - Shunaqami? Sen unaqa dema, xafa qilma, xo'pmi qizim, otasi bir kuni qaytib keladi. Dilshodaning mung'li ko'zlarini ko'rib Sodiqjon ezilib ketdi. Xotini bilan shirin qizalog'ini tashlab, allaqayerda sanqib yurgan Qobilga nafrati keldi. Chuqur xo'rinsib, shodligidan quvonchi ichiga sig'mayotgan Nigorani mehri bilan bag'riga bosdi: "O'zimning erka qizim!". **Tog'aymurod SHOMURODOV.**

XATLARDAN SATRLAR

Bir vaqtlar Payariq madaniyat uyi xodimlari xo'jaliklarga chiqib konsert berishardi. Xalqning ichida yurardi. Endi esa joylarda bunday ko'ngilochar tomoshalar yo'q. Tuman madaniyat xodimlarining faoliyatini sezmayapmiz.

Gazeta insonga axborot bilan birga bilim beradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Gazeta va kitob o'qib turadigan rahbarlar xalq ichida ham zukoligi bilan ajralib turadi. Ammo bunday kishilar kamayib bormoqda.

Negadir bugun ba'zi o'quvchilar nomigagina maktabga borib keladi. O'qishga qiziqmagani sababi o'n yil maktabda o'qib bitta badiiy kitob mutolaa qilmaydi yoki bitta she'r yodlamaydi. O'qimagan yoshlarning keyingi hayoti ham oson kechmaydi. Shuning uchun bolalarni yoshligidan kitob o'qishga qiziqtirish lozim.

Turdi TURSUNOV, mehnat faxriysi.

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 689 nusxada chop etildi. Buyurtma 277. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'OLONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda